«TASDIQLANGAN»
O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi
"Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi"
davlat muassasasi
Farmakologiya qo'mitasi
«14» 08 2026 r. № 14

TIBBIYOTDA QO'LLANILISHIGA DOIR YO'RIQNOMA
SERRATA

Preparatning savdo nomi: Serrata
Ta'sir etuvchi modda (XPN): serratiopeptidaza
Dori shakli: ichakda eriydigan qobiq bilan qoplangan tabletkalar.
Tarkibi:
Har bir ichakda eriydigan qobiq bilan qoplangan tabletka quyidagilarni saqlaydi :
faol modda: serratiopeptidaza 10 mg;
yordamchi moddalar: laktoza monogidrati (Pharmatose 200M), makkajo'xori kraxmali, yengil karbonat magniy, natriy kraxmalglikolyat (A turi), magniy stearat, Opadry oq rang-YS-1-7027 (HPMC 2910/gipromelloza E464, titan dioksidi E171, triatsetin), Opadry ichakda eruvchan-OY-P-7171 (Polivinil atsetat ftalat, titan dioksidi E171, dietilftalat, stearin kislotasi E5700), izopropil spirti, dixlormetan, tozalangan suv.
Ta'rifi: oq rangli, dumaloq shaklli, ikkiyoqlama qavariq, ichakda eriydigan qobiq bilan qoplangan tabletkalar.
Farmakoterapevtik guruhi: Suyak-mushak tizimi. Suyak-mushak tizimi kasalliklarini davolash uchun boshqa preparatlar. Ferment preparatlari.
ATX kodi: M09AB.

Farmakologik xususiyatlari

Farmakodinamikasi

Serratiopeptidaza fibrinolitik, yallig'lanishga qarshi va shishishga qarshi ta'sirga ega *Serratia E15* nopatogen ichak bakteriyalaridan ajralgan proteolitik ferment hisoblanadi. Yallig'lanish jarayonini kamaytirishdan tashqari, serratiopeptidaza yallig'langan to'qimalardan og'riqni chaqiruvchi aminlar bo'shatilishini blokirovka qilish orqali og'riqni kamaytiradi. Serratiopeptidaza alfa-2-makroglobulin bilan 1:1 nisbatda bog'lanadi, bu antigenlikni niqoblaydi, biroq fermentativ faollikni saqlaydi. So'ngra yallig'lanish joyidagi ekssudatga asta-sekin kirib boradi, uning qondagi darajasi esa asta-sekin pasayadi. Serratiopeptidaza kapillyarlar dilatatsiyasini bevosita kamaytiradi va ularning o'tkazuvchanligini bradikinin, gistamin va serotonin gidrolizi orqali nazorat qiladi. Shuningdek, serratiopeptidaza plazmin ingibitorlarini blokirovka qiladi va tegishli ravishda, plazminning fibrinolitik faolligiga yordam beradi. Balg'amning tarkibiy oqsillarini proteolizi orqali shilimshiqning reologik xususiyatlarini yaxshilaydi va yo'talni yengillashtiradi.
Preparatning fermentativ faolligi α-xemotripsinga nisbatan 10 baravar yuqori. Surunkali yallig'lanish joyida serratiopeptidaza yallig'lanish va og'riqlar mediatorlari darajasini pasaytirishga yordam beradi va fibrinni gidrolizlaydi. Albumin hamda α- va γ-globulin kabi tirik organizm oqsillariga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi .
Preparat yallig'langan joylarga yaxshi o'tadi, nekrotizatsiyalangan to'qimalar va ularning parchalanish mahsullarini lizatsiyalaydi, giperemiyani bartaraf etadi, shuningdek antibiotiklar transporti va faolligini kuchaytiradi. Preparat so'lak va burun ajratmalari yopishqoqligini pasaytiradi, bu orqali ularning ekskresiyasini kuchaytiradi.

Farmakokinetikasi

Preparat oshqozon orqali o'zgarmagan holda o'tadi va ichaklarda so'riladi. Preparat me'da shirasining ta'sirida faolsizlantirilmaydi. Qon plazmasidagi maksimal konsentratsiyasiga 1 soat davomida erishiladi.

Serratiopeptidaza ingichka ichakda so'riladi va qonda faol shakllardagi ferment sifatida aylanadi, safro bilan faol shaklda chiqariladi va kam miqdorda siydikda aniqlanadi.

Qo'llanilishi

Jarrohlik kasalliklar: paylar cho'zilishi va paylar uzilishi, suyak sinishlari va chiqishi, plastik jarrohlik tufayli paydo bo'lgan shish;

Nafas yo'llari kasalliklari: balg'am yopishqoqligini pasaytiradi va uning nafas yo'llaridan chiqarilishiga yordam beradi (bronxit, o'pka tuberkulyozi, bronxial astma);

LOR a'zolari kasalliklari:sinusit, burun qo'shimcha bo'shliqlari sekreti chiqarilishini yengillashtiradi;

Teri kasalliklari: o'tkir darajali yallig'lanish dermatozlari;

Urologiya: sistit, epididimit;

Ayollar jinsiy a'zolari va sut bezlari kasalliklari: gematomalar, sut bezlaridagi turg'unlikda qo'llaniladi.

Qo'llash usuli va dozalari

Preparat katta yoshdagi patsientlarga kuniga ovqatlanishdan keyin 2-3 mahal 1ta tabletkadan buyuriladi.

Tabletkalar chaynamasdan yutilishi kerak, ketidan bir stakan suv ichiladi.

Maksimal sutkalik doza – 30 mg.

Davolashning dozasi va muddati patologik jarayon xususiyatiga va dinamikasiga bog'liq va shifokor tomonidan individual tartibda belgilanadi.

Bolalar

Klinik ma'lumotlar yetishmasligi sababli preparat bolalarda qo'llanilmaydi.

Nojo'ya ta'sirlari

Me'da-ichak tomondan buzilishlar: diareya, ko'ngil aynishi, qayt qilish, anoreksiya, epigastral sohadagi noqulaylik, qorindagi og'riq.

Nafas olish tizimi, ko'krak qafasi va ko'ks oralig'i a'zolari tomonidan buzilishlar: burun qonashi, balg'amda qon izlari, o'tkir darajali eozinofil zotiljam kasalligi.

Immun tizimi tomonidan buzilishlar: preparatning biron-bir tarkibiy moddasiga alohida chidamsiz bo'lgan patsientlarda o'ta yuqori sezuvchanlik reaksiyalari bo'lishi mumkin.

Teri va teri osti biriktiruvchi to'qimalar tomonidan buzilishlar: toshma, qichishish, teri qizarishi kuzatilishi mumkin.

Qo'llash mumkin bo'lmagan holatlar

Serratiopeptidazaga yoki preparatning boshqa tarkibiy moddalariga yuqori sezuvchanlik. Qon ivishining buzilishida qo'llash mumkin emas.

Dorilarning o'zaro ta'siri

Antikoagulyantlar bilan bir vaqtda qo'llanilganida preparat ularning faolligini kuchaytiradi (bunday muvofiqlikda qo'llanilish puxta tibbiy kuzatuv ostida amalga oshirilishi kerak), antibiotiklar, nosteroid yallig'lanishga qarshi preparatlarning yallig'langan to'qimalarga kirishini tezlashtiradi.

Maxsus ko'rsatmalar

Preparat qon ivishiga ta'sir etishi tufayli undan quyidagi holatlarda ehtiyotkorlik bilan foydalanish kerak:

- qon ketish xavfi;
- qon ivishining buzilishi;
- antikoagulyantlar qo'llanilishi;
- og'ir darajali jigar kasalliklari;
- og'ir darajali buyrak kasalliklari.

Yordamchi moddalar.
Preparat tarkibida laktoza saqlanadi. Biron-bir qand moddalariga chidamsizlik aniqlangan holatlarda, qo'llanishdan oldin shifokor bilan maslahatlashish kerak.

Bolalarda qo'llanilishi
Klinik ma'lumotlar yetarli emasligi sababli, preparat 18 yoshgacha bo'lgan bolalarda qo'llanilmasligi kerak.

Homiladorlik va laktatsiya davrida qo'llanilishi
Klinik ma'lumotlar yo'qligi sababli preparatning homiladorlik va laktatsiya davrida qo'llanilishi tavsiya etilmaydi.
Avtotransportni va boshqa mexanizmlarni boshqarish qobiliyatiga ta'siri
Ta'sir etmaydi.

Dozaning oshirib yuborilishi
Simptomlari: ko'ngil aynishi, qayt qilish, anoreksiya, epigastral sohada noqulaylik, ayrim hollarda – qon ketish va balg'amda qon izlari kuzatilishi mumkin.
Davolash: davolash simptomatik o'tkaziladi.

Chiqarilish shakli
30 ta tabletka aluminiy stripda. 5 ta strip tibbiyotda qo'llanilishiga doir yo'riqnomasi bilan birga karton o'ramda.

Saqlash sharoiti
Quruq, yorug'likdan himoyalangan joyda 25°C dan yuqori bo'lmagan haroratda saqlansin.
Bolalar ololmaydigan joyda saqlansin.

Yaroqlilik muddati
4 yil.
Yaroqlilik muddati o'tgach qo'llanilmasin.

Dorixonadan berish tartibi
Retsept bo'yicha.

Ishlab chiqaruvchi
Kusum Healthcare Pvt. Ltd.

Ishlab chiqarish manzili
SP-289(A), RIICO Industrial Area, Chopanki, Bhiwadi, Dist. Alwar (Rajasthan), Hindiston.

O'zbekiston Respublikasi hududida dori preparatlarining sifati bo'yicha e'tirozlar (takliflar)ni qabul qiluvchi tashkilotning nomi va manzili:
"BARAKA DORI FARM" MChJ XK
100022, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Xalqa Yo'li ko'chasi, 91-uy.
Tel.: +998 (78) 150 97 97; Faks: +998 (78) 150 97 87 ;
Uyali tel.: +998 (93) 388 87 82;
E-mail: pv@kusum.uz
Web-сайт: kusum.uz